



Fidoyilik —  
Vatanga xizmat demak!

2024-yil 5-sentabr, payshanba,  
102 (23.979)-son

**KUN  
HIKMATI**

Unutmang,  
bolalar kattalar  
ularni aldash  
oson, deb  
o'ylashini yaxshi  
biladi

1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan



[www.zarnews.uz](http://www.zarnews.uz) <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) [https://twitter.com/zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)

**BIR BO'LSAK — YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK — VATANMIZ!**

## Yurtning kuchi — birlikda, qadri esa tinchlikdadir!

\* So'nggi 7 yilda O'zbekiston tashabbuslari asosida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 10 dan ziyod, jumladan, joriy yilda 4 ta maxsus rezolyutsiya qabul qilindi.

\* Jahon banki bu yil mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 5,3 foizga o'sishini prognoz qildi. Ko'plab davlatlar bilan solishtirganda bu ancha yuqori ko'rsatkichdir.

\* Bugungi nihoyatda murakkab va tahlikali davr oldimizga yangi-yangi sinov va muammolarni ko'ndalang qilib qo'yimoqda. Lekin hayot qanchalik mashaqqatli bo'lmasin, mamlakatimizda demokratik islohotlarni izchil davom ettirib, xalqimizni rozi qilishga, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.

\* Tinchlikni saqlash faqat harbiylarimizning ishi bo'lib qolmasligi kerak. Bu barchamizning, har bir O'zbekiston fuqarosining muqaddas burchi bo'lishi shart.

Yurtning kuchi — birlikda, qadri esa tinchlikdadir!

\* Hozirgi kunda Yangi O'zbekistonda barpo etishda asosiy e'tiborni beshta ustuvor yo'nalishga qaratmoqdamiz.

Bular, avvalo, sifatli ta'lim tizimini yo'lga qo'yish, biznesni rivojlantirish, korrupsiyadan xoli, adolatli sud tizimini yaratish, sog'liqni saqlash sohasini tubdan yaxshilash, ekologik barqarorlikni ta'minlashdan iborat.

Muammolarimizning yechimi, savollarimizning javobi faqat va faqat ta'limda. Hamma eshiklarni ochadigan kalit ham — faqat va faqat ta'lim va tarbiyadir.

\* Men hurmatli ota-onalarga qarata aytmoqchiman: qizlaringizni o'qitish, orzu-umidlarini ro'yobga chiqarishlarida ularga ko'makchi bo'ling!

\* Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish yo'lidagi sa'y-harakatlarimizni qat'iy davom ettiramiz. Alohida kompaniyalarga berilgan monopoliya huquq va imtiyozlarni bosqichma-bosqich bekor qilib, barchaga teng huquqlar berilishini ta'minlaymiz.

\* Biz endi 37 millionli katta xalqimiz. O'zbekiston hozirgi kunda aholi soni bo'yicha jahondagi eng yirik 40 ta davlatdan biri hisoblanadi. Bu raqamni islohotlarimiz, mehnatimiz, bilim va qobiliyatimiz bilan katta salohiyatga aylantirishimiz kerak.

\* Dengizga chiqish imkoniyatimiz cheklanganini inobatga olib, e'tiborimizni kreativ sohalarga qaratishimiz, ularni jadal rivojlantirishimiz zarur. Jahonda kreativ sanoat mahsulotlari eksportidan yiliga milliardlab dollar daromad to'payotgan mamlakatlar ko'p. Binobarin, shunday mahsulot ishlab chiqarishga bel bog'lagan ijodkor ishbilarmenlarimizni, ayniqsa, yoshlarimizni har tomonlama rag'batlantiramiz.

\* Bugungi noyob tarixiy imkoniyatlar asosida Markaziy Osiyoda har tomonlama sog'lom siyosiy muhit, kelgusi avlodlar uchun erkin va xavfsiz kelajak yaratishimiz zarur.

**(Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz uch yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan)**

**Kecha yurtimizdagi umumta'lim maktablarida "Bir bo'lsak - yagona xalqimiz, birlashsak - Vatanimiz!" shiori ostida "Bilimlar kuni" tadbirlari bo'lib o'tdi.**

Viloyatda 1263 ta umumta'lim maktabi, 42 ta nodavlat ta'lim muassasasi mavjud bo'lib, yangi o'quv yilida ushbu maktablarning 1-sinfiga 80 ming 910 nafar bola qabul qilindi. Ularga "Prezident sovg'alari" yetkazib berildi.

Bilimlar kuni munosabati bilan joylarda rahbarlar maktablarda bo'lib, o'qituvchi va o'quvchilarni Vatanimiz mustaqilligining o'ttiz uch yilligi va yangi o'quv yili bilan tabrikladi. Xususan, Qo'shrabot tumanidagi 64-umumta'lim maktabida ham bilimlar kuni ko'tarinki kayfiyatda nishonlandi. O'zbekistob Respublikasi davlat madhiyasi sadolari ostida boshlangan tadbirda viloyat hokimi Erkinjon Turdimov qatnashib, barchani yangi o'quv yili bilan tabrikladi.

Shuningdek, hokim o'rinbosarlari, sektor rahbarlari, korxonalar va tashkilot rahbarlari maktablarda o'tkazilgan tadbirlarda ishtirok etib, "Mustaqillik darslari" o'tdi.

Darslarda mustaqillikka erishish yo'lidagi qiyinchiliklar, ota-bobolarimizning jasorati yodga olindi. Bugungi tinch va farovon hayotni qadrlash, buyuk ajdodlarga munosib avlod bo'lish, buning uchun chuqur bilim olib, Vatanga munosib farzand bo'lish lozimligi qayd etildi.

X.ERNAZAROVA.

## 80 mingdan ortiq bola 1-sinfga qabul qilindi



## Islom Karimov xotirlandi



**2-sentabr - O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov xotirasi kuni munosabati bilan viloyat hokimi Erkinjon Turdimov va viloyat faollari, davlat va jamoat tashkilotlari rahbarlari Hazrati Xizir majmuasida bo'lib, Islom Karimov qabrinini ziyorat qildi. Qur'on tilovat qilindi.**

Birinchi Prezidentimizning davlatimiz mustaqillikka erishishi va taraqqiyoti yo'lidagi xizmatlari, Samarqandda amalga oshirgan bunyodkorlik ishlari yodga olindi.

Registon maydoni yaqinida o'rnatilgan Islom Karimov haykali poyiga viloyat va Samarqand shahar hokimligi, davlat idoralari, muassasalar va jamoat tashkilotlari tomonidan gullar qo'yildi.

**Kubaro Hakimova Paralimpiya o'yinlarida kumush medalni qo'lga kiritdi**



Fransiyaning Parij shahrida o'tkazilayotgan XVII yozgi Paralimpiya o'yinlarining yettinchi kunidan so'ng O'zbekiston delegatsiyasi 6 ta oltin, 4 ta kumush va 4 ta bronza medal bilan umumjamo'a hisobida o'ninchi o'rinni qayd etmoqda.

Musobaqada besh nafar samarqandlik sportchi yurtimiz sharafiga himoya qilmoqda. Para yengil atletika bo'yicha ayollar o'rtasida F41 klassida yadro uloqtirish bo'yicha startga chiqqan samarqandlik Kubaro Hakimova 10,36 metr natija bilan ikkinchi o'rinni egalladi va kumush medalni qo'lga kiritdi. Bahslar 8-sentabrga qadar davom etadi.

**Sharifa Davronova — ikki karra jahon chempioni**



Peruda yengil atletika bo'yicha yoshlar o'rtasida o'tkazilgan jahon chempionatida samarqandlik sportchi Sharifa Davronova uch hatlab sakrash dasturida 13,75 metr natija qayd etib, dunyo birinchiliklaridagi ikkinchi oltin medalni qo'lga kiritdi. Sharifa ikki yil avval Kolumbiyadagi U-20 jahon chempionatida ham oltin medal sohibi bo'lgan edi.

Champion Samarqandda tantanali kutib olindi. Sharifa Davronova hamda uning murabbiyi Muzaffar Karimovga viloyat hokimining tashakkurnoma va esdalik sovg'alari topshirildi.

## 80 ga yaqin obyekt foydalanishga topshirildi

Mustaqillik bayrami kunlarida viloyatimizda 4 ta mahalla binosi, 1 ta maktab, 3 ta tibbiyot muassasasi, 2 ta kasb-hunarga o'qitish maskani, 1 ta aholi dam olish maskani, 4 ta maishiy xizmat ko'rsatish va savdo hamda 2 ta ishlab chiqarish objekti, 3 ta mehmonxona ochildi. Birgina Payariq tumanida 15 ta obyekt foydalanishga topshirildi.



Urgut va Toyloq tumanlarida barpo etilgan ko'p qavatli uylarning egalari bayramni yangi xonadonda kutib olishdi. SamDU Kattaqo'rg'on filialida 500

o'rinli talabalar yotoqxonasi o'quv yilining ilk kunlaridan ish boshladi.

Qo'shrabot tumanida boshqa obyektlar qatori Milliy gvardiya binosi



foydalanishga topshirildi.

Narpay tumanidagi "Humo agro platinum" mas'uliyati cheklangan jamiyatining unni qayta ishlash zavodi ishga tushirilgani aholi uchun haqiqiy bayram tuhfasidir. Shodiyona damlarda tumanda yana bir obyekt - "Doktor Usmonov kilinikasi" MChJ xususiy kilinikasi faoliyat boshladi.

Past Darg'om tumanida "Ayisha Ar" mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi qo'shma korxonada negizida "Parran-

dachilik, issiqxonalar va baliqchilik xo'jaligini tashkil etish" loyihasi ish boshladi.

Bundan tashqari, qurilish mollari savdo kompleksi, maishiy texnika savdo markazi va "Keldiyor ota" choynonasi ochildi.

Yangi qiyofa kasb etgan Go'zalkent mahalla markazi binosi, "Fortuna Urgut medical" mas'uliyati cheklangan jamiyat negizida tibbiy buyumlar va dori vositalari ishlab chiqarish loyihasi faoliyati yo'lga qo'yildi.

O'z muxbirimiz.

5-SENTABRDAN 1 USD - 12 650,26 so'm (+10,22), 1 EUR - 13 983,60 so'm (-25,36), 1 RUB - 141,96 so'm (+3,63) etib belgilandi.

## Bog'bona davlat mukofoti

Mamlakatimiz mustaqilligining 33 yilligi munosabati bilan Prezident farmo-niga asosan, davlatimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlanganlar orasida Samarqand shahar obodonlashtirish boshqarmasi ishchisi Suhrob Jo'rayevning ham borligi boshqarma ishchi-xizmatchilarida faxr uyg'otdi.

"Shuhrat" medali bilan taqdirlangan Suhrob Jo'rayev qator yillardan buyon Samarqand shahrining Registon majmuasi yaqinida joylashgan Islom Karimov may-donida bog'bon bo'lib ishlab keladi.

- Har kuni erta tongda, hali odamlar uyquldigidayoq birinchi preziden-timiz Islom Karimov haykali poyiga kelib, duo qilamanu, ishga kirishaman, - deydi Suhrob Jo'rayev. - Brigadimiz a'zolari bilan atrofini chiqindi va barg-xazonlardan tozalaymiz. O'rindiqlarni artib, daraxt va gullarga suv quyamiz. Yo'laklar atrofiga gullar ekamiz. Har kuni bu yerda amalga oshiradigan ishimiz bor.

O'ttiz yildan buyon obodonlashtirish boshqarmasida ishlab kelayotgan S.Jo'ra-yeu shu ishni tanlaganidan afsuslanmaydi.

To'g'ri, avvallari obodonlashtirish xiz-mati xodimlariga past nazar bilan qarab kelishgan. Maosh-lari kam, maxsus kiyimbosh va ish qurollari yetishmasdi. Qishin-yozin tinim bilmay ishlab ham yetarlicha qadr top-magan. Bugun esa hududlar tozaligini saqlab kelayotgan



obodonlashtirish boshqar-masi xodimlari mehnati mu-nosib qadrlanmoqda. Ular halol mehnati bilan elda obro'-e'tibor topmoqda.

- Bu davlat mukofoti nafaqat menga, balki kecha-kunduz xalq xizmatini qilayotgan, shahrimiz ozo-daligini ta'minlab kelayotgan barcha tozalik posbonlariga berilgan mukofot deb bilaman, - deydi Suhrob Jo'ra-yeu. -Sariq nimcha kiygan, ko'cha va bog'larni saranjom-sarishta qilayotgan orastalik posbonlarining ishi oson emas. Chunki ular tongni o'zlariga birkirtilgan hududlarda kutib olishadi. Atrof-muhit va ekologiyani saqlashadi.

Saranjomlik yo'q joyda fayz bo'lmaydi, deydi xalqimiz. Buni S.Jo'rayev va shu sohada ishlayotgan ishchi-xizmatchilar ham yaxshi bilishadi.

Shuning uchun erta tongdan tunga qadar hududlar obodligi yo'lida tinim bilmay mehnat qilishadi.

Diimurod TO'XTAYEV.



## Kichik sanoat zonalari samara beryaptimi?

Xalq deputatlari viloyat Kengashining 101-sessiyasida samarasiz deb topilgan bir qator kichik sanoat zonalarini tugatish to'g'risida qaror qabul qilindi. Tahririyat hududlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va eng asosiysi, aholini ish bilan ta'minlash maqsadida tashkil etilgan mazkur zonalar nima sababdan tugatilganligi, qolganlarida vaziyat qanday ekanligi bo'yicha surishtiruv olib bordi.



Qaror bilan Samarqand, Kattaqo'rg'on shaharlari, Jomboy, Oqdaryo, Past Darg'om, Bulung'ur, Payariq, Paxtachi, Samarqand, Qo'shrabot, Urgut, Toyloq va Nurobod tuman-laridagi 20 ta kichik sanoat zonasi tugatilgan. Viloyat bo'yicha ularning umumiy soni shunga-cha 90 ta bo'lganligini inobatga olsak, bu kichik raqam emas. Demak, ayni qaror uchun jiddiy asoslar bo'lgan.

— Albatta, tugatilishidan oldin tegishli hudud-lar bo'yicha o'rganish olib borilib, tahlil va xulosalar qilindi, - deydi viloyat kichik va yoshlar sanoat zonalarini boshqarish bo'yicha yagona di-reksiya direktori Alisher Qamarov. — Ma'lum bo'ldiki, ba'zi hududlarda infratuzilmani shakllantirish ularga kiritiladigan investitsiya mablag'laridan ham qimmat-ga tushadi. Tabiiyki, noqulay va aholi punktidan uzoq hududda istiqbolli loyihalarni amalga oshirish murak-kab. Shu bois ular tugatilib, asosiy e'tibor mavjudlarini rivojlantirishga qaratildi.

Biz mas'ulga o'rganish va tahlillar mazkur hududlar tanlanishidan oldin amalga oshirilishi kerak emasmi-di, degan savolni ham berdik. Ta'kidlanishicha, yangi rahbar ishni hududlarni qayta xatlovdan o'tkazishdan boshlagan. Bugungacha Payariq, Toyloq va Samar-qand tumanlaridan boshqa barcha hududlardagi zonalar xatlovi to'liq yakunlanib, muammo va ularning yechimlari bo'yicha aniq vazifalar belgilab olingan.

— Vaziyatni bilmay turib, samarasiz zonalar shunchaki hisobot uchun ajratilgan degan xulosaga kelish mumkin, - deydi Alisher Qamarov. — Ammo bu ko'proq tajriba-sizlik oqibati. Sababi, iqtisodiy zonalar tushunchasining o'zi yangilik bo'ldi. O'tgan vaqtda uning qanday ishlashi, ishlatilishi borasida tajriba to'pladik. O'tkazilayotgan xatlov xatolarimizni to'g'rilash imkoniyatini bermoqda. Xusu-san, jarayonda aksariyat tadbirkorlar zonalarni shunchaki vaqtin o'tkazib, ulardagi bino va inshootlarni xususiy-lashtirib olish maqsadida saqlab kelayotganligi aniq bo'ldi. Ya'ni, ular yillar davomida investitsiya majburiyatlarini bajarmagan yoki qisman, nomigangina bajargan. Ular bilan tuzilgan shartnomalar bekor qilinib, hududlar qayta elektron-onlayn auktsion savdolariga chiqarilmoqda. Shu kunda majburiyatlarini bajarmagan 30 nafarga yaqin tad-birkorning ishi sudda ko'rib chiqilyapti.

Shu yerda egalik masalasiga oydinlik kiritib o'tish maqsadga muvofiq. Kichik sanoat zonalari to'g'risidagi nizomga muvofiq, tadbirkorlarga tegishli hududda o'z mablag'lari hisobidan qurilgan bino va inshootlarga egalik huquqini belgilangan tartibda rasmiylashtirishga ruxsat berilgan. Bunda ular o'ziga berilgan bino va inshootlar-ni (yoki ularning qismini) investitsiya va boshqa ijtimoiy majburiyatlarini to'liq bajarish sharti bilan, ammo kichik sanoat zonasi ishtirokchisi maqomini olgan sanadan boshlab besh yildan kam bo'lmagan muddatda xususiy lashtirish mumkin. Tadbirkorning o'z mab-lag'lari hisobidan rekonstruksiya qilingan yoki kapital ta'mirlangan bino va inshootlar uchun esa uch yil muddat ko'rsatilgan. Bu yerda e'tibor qaratishingiz kerak bo'lgan asosiy talab - "investitsiya va boshqa ijtimoiy majburiyatlarini to'liq bajarish sharti" hisob-lanadi. Agar u bajarilmasa yoki chala bajarilsa, xususiy lashtirish amalga oshirilmaydi.

Tanganiy ikkinchi tomoni ham bor. Ya'ni, kichik sanoat zonasi ishtirokchilari faoliyatini to'laqonli amalga oshirishi uchun zarur tashqi muhandislik-texnik kommunikatsiyalar bilan ta'minlanishi lozim. Agar u to'liq ta'min-

lanmasa yoki ishlab chiqarish faoliyatining boshlanishi kechikishiga obyektiv boshqa sabablar mavjud bo'lsa, ular ma'muriy kengashning qarori asosida investitsiya loyihasi-ni amalga oshirish doirasida ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish muddatini uzaytirishni talab qilish huquqiga ega. Ma'lumotga ko'ra, ayni kunda viloyatdagi 29 ta kichik sanoat zonasi muhandislik-texnik kommunikatsiyalar bilan ta'minlangan, qolgan esa yo'q. Biz Kattaqo'rg'on tumani misolida holatni o'rganishga harakat qilindi.

Tumanning Kattaming mahallasi hududida ikkita sanoat zonasi joylashgan. Ulardan biri - "Mobitex" mas'uliyati cheklangan jamiyati tayyor trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi.

— Loyihaga 4 million AQSH dollari tikkanmiz, - deydi korxonahabari Alisher Rahmonov. — Ishni boshlagani-mizga ikki yil bo'ldi. Hozircha 100 nafardan ortiq ishchimiz bor. Faoliyatimizni yanada kengaytirishga tayyormiz, lekin 150 ta bo'sh ish o'rniga nomzodlarni topa olmayapmiz. Ishchi kuchi yetishmayapti.

Korxonada xodimlar bajargan ishga qarab, 1 million-dan 4 million so'mgacha maosh olar ekan. Ular tushlik bilan ta'minlanadi, kelib-ketishi uchun transport ajratilgan. Shunga qaramay, yangi ishchilarni bu hududga jalb qilish muammo bo'lyapti.

Yana bir muammo elektr energiyasi ta'minoti bilan bog'liq. Tadbirkorning aytishicha, korxonada tez-tez elektr ta'minoti uziladi. Bu ishlab chiqarish sanoatida zarar de-gani. Yuqoridagi holatda esa ishning to'xtashi ishchilarga ham yetarlicha ish bajarish va daromadini oshirish im-konini bermaydi. Tabiiyki, bunday sharoitda hamma ham ishlashni istamaydi.

Unga tutash hududdagi "Kattaqo'rg'on shifer" mas'uliyati cheklangan jamiyatida ham vaziyat shunday. Bu kor-xona mavsumiy ishlama ham elektr energiyasidagi uzilish-lar unga zarar keltirayotgan ekan.

— Mavsumda 56 nafar ishchini yollaymiz, 15 nafar doimiy ishchimiz bor, - deydi korxonahabari Sunnatilla Berdiyev. — Har gal elektr energiyasi 40 minutdan ortiq muddatga uzilsa, uskunadagi qorishma yaroqsiz holatga keladi va o'rtacha 20 million so'm zarar qilamiz. Afsuski, bunday holat tez-tez bo'lib turadi. Faoliyatimizni to'liq yo'lga qo'yishimiz uchun tabiiy gaz ham kerak. To'g'ri, tarmoq tortib berildi. Ammo undagi yo'qotishlar sababli gaz bosimi juda past. Agar shu muammolar hal qilib beril-sa, daromadga chiqishimiz aniq.

Ma'lumot uchun, korxonada 2021-yilda kichik sanoat zonasi ishtirokchisiga aylangan. Ya'ni, oradan 3 yildan ortiq vaqt o'tgan va loyihaga katta mablag' yo'naltirilgan bo'lsa-da, tadbirkor daromadga chiqa olmayapti va bu birgina holat emas.

To'g'ri, kichik sanoat zonalari ishtirokchilari ichida zarur infratuzilma bilan to'liq ta'minlangan, o'tgan davr-da yaxshigina natijaga erishganlari ham ko'p. Umumiy statistika aynan shularning hisobiga ko'tarilmoqda. Ammo bu imkoniyat boshqalarga ham o'z vaqtida berilsa, sama-radorlik yanada yuqori bo'lar edi. Tadbirkor ishlama, soliq to'laydi, demak, davlatga foyda keltiradi. Qolaversa, yangi ish o'rinlari aholi o'rtasida ishsizlikni qisqartirish, oilalar-ni daromadini oshirishga xizmat qiladi.

Direksiyadan olingan ma'lumotga ko'ra, joriy yil viloyat-dagi 21 ta kichik sanoat zonasida zarur infratuzilmani yaratish uchun 18 milliard so'm mablag' ajratilgan. Bu yaxshi. Ammo jarayonda raqam emas, sifatga ham e'ti-bor berilishi, xususan, tadbirkorlar elektr energiyasidagi uzilishlar va tabiiy gaz bosimining pastligidan shikoyat qilmasligi kerak.

Asqar BAROTOV.

## BU FAKT!

Statistika boshqarmasiga ko'ra, viloyatda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 909 tasi, ya'ni 89,7 foizi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha 97,2 foiz korxonalar sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2023-yilning mos davriga nisbatan 103,3 foizni tashkil etdi.

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 1,9 foizni, o'sish sur'ati 95,0 foizni, yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 0,9 foizini, o'sish sur'ati 150,0 foizni ko'rsatdi.

## Faoliyat sarhisob qilinib

I Kongressga delegatlar saylandi

SAYLOV  
2024  
27-OKTABR  
MENING TANLOVIM — OBOD VATANIMI

O'zbekiston liberal-demokratik partiyasi viloyat kengashining navbatdagi kon-ferensiyasi o'tkazildi.

Unda o'tib borayotgan 5 yillikdagi faoliyat sarhisobi bilan birga, joriy yilning 27-oktabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda viloyat, tuman va shahar kengashlariga bo'lib o'tadigan saylovlarda munosib ishtirok etish masala-si ko'rib chiqildi.

Qayd qilinganidek, partiya g'oya va maqsadlari atrofida har tomonlama faol, yurtimiz taraqqi-yoti va ravnaqi bilan o'z taqdirini yagona deb hisoblaydigan, bu borada o'z salohiyati, bilim hamda intilishlarini ana shunday ezgu ishlarga yo'naltira olgan kishilarni birlashtirishga e'tibor qaratilmoqda.

Shu sabab umummilliy siyosiy tashkilot sifatida turli tarmoq va tizim vakillarini o'z saflariga yanada ko'proq birlashtirimoqda. Bunday samarali faoliyati tufayli partiya boshlang'ich tashkilotlari soni ham sezilarli ravishda oshib boryapti.

Xususan, 2019-yil 1-yanvar holatiga partiya-ni viloyat kengashidagi boshlang'ich tashkilot-lari 1236 ta hamda a'zolar soni 100 ming 865 nafarni tashkil etgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib, boshlang'ich tashkilotlar 1450 ta, a'zolar soni esa 155 ming nafardan ziyodni tashkil etayotir.

Partiya deputatlik guruhi tomonidan o'tgan davr davomida tegishli tashkilot va idoralar rah-barlariga 5 ming 419 ta deputatlik so'rovi yubori-lgan, 200 dan ortiq masala boshlang'ich partiya tashkilotlari tashabbusi asosida tayyorlanib, deputatlik guruhi tomonidan e'tibor qaratildi. 661 marotaba mansabdor shaxslarning hisoboti

eshitildi. 100 dan ortiq masala viloyat keng-gashi sessiyada ko'rib chiqilib, tegishli qaror qabul qilindi.

Partiya viloyat kengashi tomonidan 2019-2024-yillar davomida 20 mingga ya-qin davra suhbatlari, uchrashuvlar, partiyaviy loyihalar, jamoatchilik nazorati va ommaviy tadbirlar tashkil etilgan bo'lib, mazkur tad-birlarda 1 milliondan ortiq elektorat vakillari tadbirkor va fermerlar, yoshlar, xotin-qizlar, intellektual mulk sohiblari hamda partiya faollari ishtirok etgan.

Sarhisobdan so'ng partiyaning I Kongressiga delegatlar saylandi hamda Qonunchilik palatasi, mahalliy kengash-lariga bo'lib o'tadigan saylovni uyushqoqlik bilan o'tkazish va mazkur siyosiy jarayonga qizg'in tayyorgarlik ko'rish bo'yicha vazifalar belgilab olindi.

Tadbirda viloyat hokimi o'rinbosari R.Qo-bilov ishtirok etdi.

O'zLiDeP viloyat kengashi matbuot xizmati.



SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND  
DAVLAT UNIVERSITETIO'zbekiston Respublikasi davlat budjeti mablag'lari hisobidan  
stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va doktoranturaga 2025-yil uchun

## QABUL E'LON QILADI

T/r	Ixtisoslik shifri va nomi	Tayanch doktorantura	Doktorantura	Maqsadli tayanch doktorantura	Stajyor-tadqiqotchilik
	<b>Jami</b>	<b>99</b>	<b>11</b>	<b>15</b>	<b>7</b>
1	01.01.01 – Matematik analiz	3	2		
2	01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika	2			
3	01.01.06 – Algebra	2			
4	01.02.01 – Nazariy mexanika	1			
5	01.02.03 – Gruntlar va tog' jinslari mexanikasi	1			
6	01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi	1			
7	01.02.05 – Suyuqlik va gaz mexanikasi	1			
8	01.03.01 – Astronomiya	1			
9	01.04.02 – Nazariy fizika	2			
10	01.04.05 – Optika	2			1
11	01.04.07 – Kondensirlangan holat fizikasi	1		1	
12	01.04.08 – Atom yadrosi va elementar zarrachalar fizikasi. Tezlashiruvchi texnika	2			1
13	01.04.09 – Magnit hodisalar fizikasi	1			
14	01.04.11 – Lazer fizikasi	1		1	1
15	02.00.01 – Noorganik kimyo	1			
16	02.00.02 – Analitik kimyo	2		1	
17	02.00.03 – Organik kimyo	1			
18	02.00.04 – Fizik kimyo	2			1
19	02.00.06 – Yuqori molekulyar birikmalar kimyosi	1			
20	02.00.12 – Nanokimyo, nanofizika va nanotexnologiya	4		1	1
21	03.00.05 – Botanika	2	1	1	
22	03.00.06 – Zoologiya	2	1		
23	03.00.07 – O'simliklar fiziologiyasi va biokimyosi	2		1	
24	03.00.08 – Odam va hayvonlar fiziologiyasi	2	1		
25	03.00.09 – Umumiy genetik	2			
26	03.00.10 – Ekologiya	2			
27	03.00.12 – Biotexnologiya	2			1
28	03.00.13 – Tuproqshunoslik	1			
29	05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash	2		2	
30	05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari	2		1	
31	05.01.07 – Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui	1			
32	06.01.01 – Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik	1	1		
33	06.01.03 – Agrotuproqshunoslik va agrofizika	1			
34	06.01.04 – Agrokimyo	2			
35	06.01.06 – Sabzavotchilik	1			
36	06.01.07 – Mevachilik va uzumchilik	1			
37	06.01.08 – O'simlikshunoslik	1			
38	06.01.09 – O'simliklarni himoya qilish	1			
39	07.00.01 – O'zbekiston tarixi	2	1		
40	07.00.03 – Jahon tarixi	2			
41	07.00.06 – Arxeologiya	2			
42	07.00.08 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari	2			
43	08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi	1			
44	08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti	2		1	
45	08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti	1			
46	09.00.01 – Ontologiya, gnoseologiya va mantiq	1			
47	09.00.02 – Ong, madaniyat va amaliyot shakllari falsafasi (nomi)	1			
48	10.00.01 – O'zbek tili	2	1		
49	10.00.02 – O'zbek adabiyoti	2	1	1	
50	10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti	2			
51	10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimonshunoslik	2	1	1	
52	11.00.01 – Tabiiy geografiya	3	1	1	
53	11.00.02 – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya	2		1	
54	11.00.03 – Quruqlik gidrologiyasi. Suv resurslari. Hidrokimyo	2			
55	11.00.05 – Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish	2			
56	13.00.04 – Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi	2			
57	13.00.06 – Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalar va bosqichlari bo'yicha)	2		1	1
58	19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya	2			
59	22.00.02 – Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi	2			

## Stajyor-tadqiqotchilik va tayanch doktoranturaga o'qishga talabgorlar quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

- Ariza.
- Qisqacha biografik ma'lumotnoma (obyektivka - 3.5 shakl).
- Pasport yoki ID karta nusxasi.
- Mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun).
- Oliy ta'lim muassasasi magistraturasi diplomi yoki oliy ma'lumot (mutaxassislik dasturlari bo'yicha) to'g'risidagi diplom nusxasi.
- Nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek, ularning nusxalari (3.4 shakl, kamida 1 ta maqola va 2 ta tezis).
- Xorijiy tillarni bilish darajasini belgilovchi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat (tayanch doktorantura uchun).
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi sohiblari tegishli hujjat nusxasini taqdim etadilar.

## Doktoranturaga o'qishga talabgorlar quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

- Ariza.
- Qisqacha biografik ma'lumotnoma (obyektivka - 3.5 shakl).

- Pasport yoki ID karta nusxasi.
- Mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun).
- Oliy ma'lumot, fan nomzodi yoxud falsafa doktori (PhD) yoki xorijiy davlatlarda unga tenglashtirilgan ilmiy darajaga ega bo'lganligi to'g'risidagi diplom nusxasi.
- Tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy ma'ruza va fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan doktorlik dissertatsiyasi rejasining mufassal loyihasi.
- Nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek, ularning nusxalari (3.4 shakl, kamida 3 ta maqola va 2 ta tezis).
- Xorijiy tillarni bilish darajasini belgilovchi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat.
- Hujjatlar 2024-yil 15-sentabrdan 15-oktabrgacha Oliy ta'limdan keyingi ta'limni muvofiqlashtirishning yagona elektron tizimi (<https://daraja.ilmiiy.uz>) orqali qabul qilinadi.

**Manzil: Samarqand shahri Universitet xiyoboni, 15-uy. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash va talaba-yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish bo'yicha.**

**Murojaat uchun telefon raqami: +99891-557-77-44.**

Samarqandda veterinariya sohasida mehnat qilib, malakali kadrlar tayyorlab, hayvonlar kasalliklarini davolashda operatsiya usullarini qo'llash bo'yicha ilmiy maktab yaratgan zabardast olim Baxtiyor Narziyev bugun qutlug' 70 yoshni nishonlamoqda.

B. Narziyev 1954-yil 17-sentabrda Past Darg'om tumanida tug'ildi. 1976-yilda Samarqand qishloq xo'jalik institutini veterinariya vrachi mutaxassisligi bo'yicha tugatdi. 1982-yilda Moskva davlat veterinariya akademiyasida aspiranturani muvaffaqiyatli tugatib, nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Olim 1982-2020-yillar davomida Samarqand qishloq xo'jalik institutida assistent, dotsent, kafedra mudiri, o'quv ishlari bo'yicha prorektor lavozimlarida faoliyat ko'rsatdi. Hozirda Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida veterinariya jarrohligi va akusherlik kafedrasini mudiri lavozimida ishlab kelmoqda. Ustoz 200 dan ortiq ilmiy-uslubiy ishlar, ilmiy maqolalar hamda

ILMIY MAKTAB  
YARATGAN OLIM

bir darslik, beshta o'quv-uslubiy qo'llanma, uchta monografiya, bir qator ta'vsiyanomalar muallifi. Hayvonlar kasalliklarini davolashda operatsiya usullarini qo'llash bo'yicha ilmiy maktab yaratgan zabardast olim. Uning rahbarligida bir nafar fan nomzodi, to'rt nafar falsafa doktori (PhD), 50 nafar magistr tayyorlangan. U tarbiyalagan shogirdlar respublikamiz va xorijda veterinariya sohasida mehnat qilib kelmoqda.

Respublikada malakali kadrlar tayyorlashdagi jonkuyarligi, universitet jamoatchilik ishlarida faolligi, tashabbuskorligi uchun Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining "Veterinariya fidoyisi" ko'krak nishoni, "Oltin tulpor" mukofoti, bir nechta faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan.

Olim respublikada mohir klinik mutaxassis, kafedra qoshidagi "Vet Nur" klinikasida hayvonlar kasalliklarini davolash va oldini olish ishlarida rahbarlik qilib, talaba va magistrlarda amaliy ko'nikmalarni hosil qilish, hududlarda epizotik osovishlilikni ta'minlashga hissa qo'shib kelmoqda. Shuningdek, respublikamizda kinologiya xizmatlari faoliyatini takomillashtirishda jonbozlik ko'rsatmoqda.

Ustozni muborak yoshi bilan qutlab, ilmiy va pedagogik faoliyatida ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz!

**Hakim NIYOZOV,**  
professor.  
**Jasurbek YULCHIYEV,**  
dotsent.

## Jinoyat izlaridan fosh etiladi

**Bunda trasologiya ekspertizasi yordam beradi. Aslida ayni sohaning kelib chiqishi qadim o'tmishga borib taqaladi. O'sha davrlarda ham insoniyat ov qilish, sherik yoki dushmaning harakatlanish yo'nalishini topish uchun izlarni o'rgangan. Bugun esa u jinoyatlarning oldini olish, sodir etilganini aniqlash va tergov qilishda o'ta ahamiyatli ekspertiza yo'nalishi, kriminalistikaning asosiy bo'limlaridan biri hisoblanadi.**

Yurtimizda ham trasologiya ekspertizalari o'tkaziladi. Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi tomonidan amalga oshiriladigan ekspertizaga talab yil sayin ortib bormoqda. Masalan, markazning birgina Samarqand viloyati bo'limi tomonidan joriy yilning dastlabki 6 oyida 241 ta trasologiya ekspertiza xulosasi berilgan.

Aytish joizki, yo'llarda transport vositalari sonining ortganligi transport izlarining trasologik ekspertizasi ehtiyojini oshirmoqda. Deylik, nomal'um transport vositasi piyodani urib, voqea joyidan qochib ketdi. Mazkur yo'l transport hodi-



sasini sodir qilishda gumonlanayotgan transport vositalari huquq-tartibot idoralari tomonidan topilgach, trasologiya ekspertizasi tayinlanadi. Agar ekspertiza gumonni tasdiqlasa, u sudda dalil sifatida ishlatiladi.

**Otabek IBRAGIMOV,**  
O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazining viloyat bo'limi katta eksperti.

## DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasida marhum Nasirova Raisa Izzatovna (2021-yil 14-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.**

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Nazmidinova Raziya (2023-yil 3-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasida marhum Xujamov Mexridin Xamrayevichga (2024-yil 2-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 12-uy.**

## BEKOR QILINADI

"O'zagrosug'urta" AJ Samarqand viloyat filiali Samarqand shahar sug'urta markaziga tegishli quyidagi sug'urta polislarini yo'qolganligi sababli bekor qilinadi:

T/r	Sug'urta polisi nomi	Seriyasi	Raqami	Soni
1	"Aholi imorat"	AI-2018	0128501 dan 0128700 gacha	200
2	"Aholi imorat"	AI-2018	0128701 dan 0128900 gacha	200
3	"Aholi imorat"	AI-2018	0069251 dan 0069950 gacha	700

Bagirov Axmed Imamkulovichga tegishli Samarqand shahri "Imom Vose" MFY, G'uzor ko'chasi, 1-yo'lak, 40-uy-joyning kadastr hujjatlari to'plami (kadastr raqami: 14:16:01:02:04:4071) yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Babadjanov Iloxom Xamdamovichga (2011-yil 30-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.**

Toyloq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hasanov Aloviddin G'iyosiddin o'g'li notarial idorasida marhum Karimov Nasim Xalimovichga (2024-yil 8-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hasanov Aloviddin G'iyosiddin o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Toyloq tumani Toyloq shaharchasi.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrillovna notarial idorasida marhum Axmedjanov Ramil Ravilevichga (2023-yil 26-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrillovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.**

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Umarov Saloitdinga (2022-yil 7-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.**



Gazeta o'tgan asrning 20-yillarida siyosiy-ijtimoiy voqea o'laroq sahnaga chiqdi. 1924-yilning 25-avgustida "Овози тоҷики камбағал" gazetasining birinchi sonida Sadridin Ayniyning "Sod-Ayn" imzosi bilan chop qilingan maqolasida "Gazetasiz bo'lmagan har millatning go'yoki tili yo'qdir. Ya'ni, gazetasiz xalq tilsiz odam kabidir", deyiladi.

## O'ktam ovoz

"ОВОЗИ ТОҶИК" gazetasi 100 yoshga to'ldi



Jamiyat hamda ziyo va adab ahli o'rtasidagi bir vosita o'laroq gazetasining nashr etilishi qanchalik favqulodda muhim, hatto aytish mumkinki, millat uchun taqdirsoz bo'lganini tasavvur qilish qiyin emas. Ustoz Ayniy va gazetasining birinchi bosh muharriri Abdulqayum Qurbiy (Hamroyev) gazeta orqali jamiyatga ziyo olib kiradi.

Abdulqayum Qurbiy gazeta ishini yuritish yo'lida jadidchilik harakati vakili, ma'rifatparvar iste'dod sohiblaridan edi. U yigirmanchi yillarda bir nechta tojikcha nashriyatlarga nafaqat asos solgan, balki ularda mas'ul muharrir sifatida ham faoliyat yuritgan. "Ovoz tojik" gazetasi ta'sis etilib, unga Qurbiy bosh muharrir bo'lguniga qadar Toshkent va Samarqandda bir necha nashriyot chop etilar va oradan hech qancha vaqt o'tmay, turli ijtimoiy sabablar tufayli yopilardi. Qurbiy har safar bundan ta'sirlanar va yangi gazetani tashkil qilish payida bo'lardi. Jumladan, "Sho'lai inqilob" haftanomasini chop qilish to'xtatilgandan so'ng Qurbiy xonadonida Alizoda, Javdat va Rojij kabi ijodkorlar ishtirokida bo'lib o'tgan yig'inda yangi gazetani ta'sis etish g'oyasi yuzaga keladi. "Ovoz tojik" ana shu yig'ilish va kengashning mahsuli bo'ldi. Keyinchalik o'sha zamonning taniqli adib va ijodkorlari Payrav Sulaymoniy, Hoji Muin, To'raqul Zehniy, Rahim Hoshim va Nisur Muhammad gazeta bilan hamkorlik qila boshladilar. Qurbiy hokimiyat vakili sifatida Sharqiy Buxoro, Xo'jand, O'rtepa, Pomir va Falg'ar tomonlarga xizmat safarlari chog'ida joylardagi ziyo ahlini gazeta tashkil qilishga chaqirardi. Jumladan, u "Bedorii tojik" gazetasi ta'sis etganlardan biri hisoblanadi.

O'sha davrdagi qiyinchilik sababli rahbarlik qilish va gazetani chop etish jarayoni ancha mushkul edi. Jumladan, gazetachilikdan xabardor bo'lgan Rahim Hoshim o'z xotiralarida shunday yozadi: "Qog'oz hamma vaqt ham topilavermasdi. Qurbiy va Alizoda gazetani vaqtida chop qilish uchun savdogarlardan nasiyaga qog'oz olgan kunlarni bilaman".

Gazetasining birinchi mas'ul muharriri Abdulqayum Qurbiy haqida "Ovoz tojik" bilan bog'liq 50-yillardagi va undan keyingi solnomalarda ma'lumot uchramaydi. Qurbiyning nomi oqlangandan keyingina manbalarda uning tarjimai holi, hukumat va matbuotdagi faoliyatini o'rganish boshlandi. Bu nomning tilga olinmaganiga sabab – u 1937-yili «inqilobga qarshi» aybi bilan 10 yil muddatga qamaladi va o'sha yili uzoq yurtida vafot etadi. 1986-yili Samarqand viloyat sudi o'z hukmi bilan "Ovoz tojik"ning birinchi bosh muharriri Abdulqayum Qurbiyning pok nomini oqlaydi. Hozir Samarqand shahrida Qurbiy nomi bilan ataladigan ko'cha boshida unga yodgorlik lavhasi o'rnatilgan.

Keyinchalik gazetaga Muhammadjon Hasanov, Shahobiddin Sadrullin bosh muharrir bo'lgan.

Gazeta 1938-yilda vaqtincha o'z faoliyatini to'xtatadi. So'ngra "Haqiqati O'zbekiston", 1950-yildan boshlab "O'zbekiston surx" nomi bilan chop etiladi. Shundan buyon gazeta tanaffussiz, biroq bir necha marta nomi o'zgarib nashr qilinmoqda.

Boshqa barcha davriy nashrlar singari "Ovoz tojik" ham hokimiyat fikri va g'oyasini aks ettiruvchi gazeta edi. O'sha paytdagi tizim va siyosiy o'zgarishlarga bog'liq ravishda hayotning sur'atini jamiyatdagi kayfiyat yo'nalishiga ko'ra yoritardi. Ammo gazeta nashr qilingan barcha davrlarda o'zbek va tojik xalqlari, hatto O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi do'stlik, birodarlikni targ'ib etish asosiy izchil yo'nalishlardan edi. Sovet davridagi salkam yetmish yillik tarixida gazeta turli evrilishlarni boshdan kechirdi. Dastlab kichik hajmdagi bir sahifada bosilgan bo'lsa, 80-yillar oxirlariga kelib, haftada besh marotaba chop etiladigan, tiraji ham ba'zi yillari 35 ming nusxaga yetadigan katta gazetaga aylandi.

Hozir gazeta mamlakat Yangi O'zbekiston nomini kasb etgan bir zamonda o'quvchilar qo'liga yetib bormoqda. Gazeta Oliy Majlis va O'zbekiston Vazirlar Mahkamasini nashri hisoblanadi. Jamiyat hayotining yangi davri va respublika rahbariyatining siyosati xalqning kayfiyatiga shunday o'zgarish olib kirdiki, buni so'z bilan ifodalash mushkul. Tabiiyki, xalqning kayfiyati va holati gazeta-jurnallar sahifalariga ko'chadi va birgalikda jamiyat hayotining suratini aks ettiradi.

Ayni shu gapni "Ovoz tojik" haqida ham aytish mumkin. Bularning barchasi nashriyaning kelgusidagi mavjudligiga ishonch va ilhom belgisi. Respublikada yashayotgan turli xalqlar va elatlar uchun yaratilgan qulay muhit va munosib sharoit "Ovoz tojik" sahifalarida ham keng yoritiladi. Zero, gazeta mushtariylari va o'quvchilari ham ularning bir qismi bo'lib, bu muhitni o'z jonu tanlari bilan his qiladi.

Respublika rahbari Shavkat Mirziyoyevning mamlakat ichida va qo'shni mamlakatlarda millatlararo totuvlikni ta'minlashga doir uzoqni ko'zlagan va oqilona siyosati bunga zamin yaratgan.

Aytish kerakki, "Ovoz tojik" vujudga kelgandan boshlab shu kungacha tarixiy-madaniy va milliy mushtaraklik nuqtai nazaridan qo'shni va do'st Tojikiston bilan juda mustahkam va yaqin aloqalarga ega. Bizni yagona madaniy-adabiy muhit va boshqa ko'plab muhim qadriyatlar o'zaro bog'lab turadi. O'tgan yuz yil davomida gazeta sahifalarida birodar Tojikistondan maqola va rasmlar doimo berib borilgan va o'zining alohida o'rniga ega bo'lgan. Bugun ikki respublika munosabatlari, ikki yetakchi – Shavkat Mirziyoyev va Emomali Rahmonning siyosiy irodasi bilan yuksak va beqiyos ittifoqchilik, do'stlik darajasiga ko'tarildi.

Shu kunlarda "Ovoz tojik" o'zining 25 kishilik ijodiy hay'ati, 4 ming 200 nusxadan ortiq adadi bilan har bir mushtariy va muxlislar qalbiga ma'rifat, madaniyat, bilim va zakovat nurini taratib, bir asrga teng to'yini kelajakka ishonch bilan nishonlamogda. Bu bayram barchamizga qutlug' bo'lsin!

**Tojiboy IKROMOV,**  
"Ovoz tojik" gazetasi  
bosh muharriri o'rinbosari.  
**Zohir HASANZODA,**  
"Ovoz tojik" gazetasi maxsus muxbiri.

**MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi**

**Bosh muharrir: Farmon TOSHEV**

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 11 712 nusxada chop etildi. Buyurtma 462. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

**QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56**

**BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61**

**MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.**

## Kattaqo'rg'onda madaniyat sohasidagi muammolar qachon hal etiladi?

Viloyatdagi 80 ta madaniyat markazidan 62 tasi o'z binosiga ega bo'lsa, 18 tasida bino yo'q, hududlardagi aksariyat madaniyat markazlari ta'mirtalab, moddiy texnik bazalari yaxshi emas, sohada kadrlar bilan bog'liq muammolar bor. Kattaqo'rg'on tumani madaniyat bo'limi faoliyati bilan tanishib, bunga amin bo'ldik.

Tumandagi 5 ta madaniyat markazida 69 ta to'garak tashkil etilgan va ularda 58 nafar xodim 600 nafardan ziyod havaskorga musiqa va san'at sirlarini o'rgatib kelmoqda.

- Yigirma yildan buyon madaniyat tizimida ishlayman, - deydi Kattaqo'rg'on tumani madaniyat bo'limi boshlig'i vazifasini bajaruvchi Ilhom Fayziyev. - Rosti, keyingi paytda sohaga e'tibor oshdi, lekin uzoq yillardan buyon tizimda hal etilmayotgan muammolar bor. Jumladan, bo'lim tasarrufidagi 27-madaniyat markazi binosi avariya holatida, 28-, 29-madaniyat markazlari o'z binosiga ega emas. Xodimlarning maoshi kam, madaniyat markazlarining moddiy-texnik bazasi achinarli holatda. Masalan, ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlari o'tkazishda madaniyat bo'limlariga ovoz kuchaytirish moslamalari, media apparatlar, dekoratsiyalar uchun ko'rgazmalik vositalar kerak bo'lsa, madaniyat xodimlariga bunday tadbirlarga jalb qilinishi uchun haq to'lanishi kerak. Afsuski, tizimda mutlaqo buning aksi. Ushbu muammolar sababli ko'pchilik xodimlar ishdan ketimoqda yoki mustaqil faoliyat yuritayapti.

Shu bois hozir so-



hada mehnat qilayotgan xodimlarning bor-yo'g'i 12 nafari oliy ma'lumoti bo'lsa, 7 nafari tugallanmagan oliy va 39 nafari maktab va kollej bitiruvchilari.

**O'LKASHUNOSLIK MUZEYI HECH KIMGA KERAK EMASMI?**



Kattaqo'rg'onda 50 dan ziyod arxitektura va arxeologiya obyekt bo'lib, shundan 16 tasining holati qoniqarli, 30 tasi qoniqsiz, 4 tasi esa avariya holatida.

1791-yilda bunyod etilgan Payshanba shaharchasidagi Muhammad Amiri Naqibbek madrasasi omborxonaga aylantirilib, qariyb bir asrdan beri qarovsiz qoldirilgan edi. 1928-yilgacha madrasa sifatida faoliyat ko'rsatib kelgan ushbu tarixiy obidada ta'mirlash ishlari olib borilib, o'lkashunoslik muzeyiga aylantirilgan. Davlat muhofazasi-ga olingan mazkur muzeyning hozirgi holati qoniqarli, lekin faoliyat ko'rsatmaydi.

- Madrasa hovlisiga peshtoqli darvozadan kirib borilib, hovlida baland ayvon, masjid va 16 ta xona mavjud, - deydi Ilhom Fayziyev. - 2015-yildan buyon ushbu tarixiy

obidani saqlab qolish, ta'mirlash va kelajak avlodga yetkazish uchun harakat qilaymiz. Tumanimizda yashovchi bir guruh ziyolilar, mehnat faxriylari madrasa binosini asrab qolish maqsadida ma'naviyat va ma'rifat markaziga aylantirish tashabbusi bilan chiqqan edik. Bu taklif viloyat hokimligi tomonidan ma'qullandi. Madrasa negizida tarixiy o'lkashunoslik muzeyi tashkil qilish bo'yicha qaror qabul qilindi. 2019-yilda mahalliy budget hisobidan 500 million so'm mablag' ajratildi. Majmuada ta'mirlash ishlari amalga oshirilib, zarur jihozlar va tarixiy ashyolar keltirildi, qadimiylilik va zamonaviylik uyg'unligida bezatilib, 2022-yil yakunida foydalanishga topshirildi. Ayni paytda muzeyda qariyb 3,5 mingta eksponat saqlanadi. Afsuski, muzeyda ushbu tarixiy ashyolarni asrab-avaylaydigan, kelajak avlodga o'z holicha yetkazadigan hech kim yo'q, ya'ni shtat birligi ajratilmagan. Bu borada tegishli tashkilotlar-ga bir necha marta murojaat qildik, biroq foydasi bo'lmadi. Nahotki o'tmishimiz, o'zligimiz aks etgan dargoh, ota-bobolarimizdan meros muqaddas qadamjo hech kimga kerak emas?

Tarixsiz kelajak bo'lmasa, madaniyatsiz jamiyat rivojlanmaydi. Yurtimiz tarixi va buguniga befarq bo'lmagan holda tuman hokimligi, viloyat madaniyat va madaniy meros boshqarmalari mas'ullari sohadagi muammolarga e'tibor qilib, degan umiddamiz.

**Fazliddin RO'ZIBOYEV.**

## SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

**7-SENTABR**

**Bahodir YO'LDOSHEV** – (1945-2021) Kattaqo'rg'on shahrida tug'ilgan. Rejissyor. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi. O'zbekiston xalq artisti.

**Mirumar ASADOV** – (1927-2010) Samarqand shahrida tug'ilgan. Usta-me'mor. O'zbekiston Qahramoni.

**10-SENTABR**

**Lapas ALIBEKOV** – (1938-2020) Urgut tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, professor.

**Komil MO'MINOV** – (1951-2021) Oqdaryo tumanida tug'ilgan. Qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor.

**Najmiddin VAHOBOV** – 1940-yilda Urgut tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi.



Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
**Korxonalar manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.  
Bosishga topshirildi: soat 19:00

**Navbatchi muharrir:**

**G'.HASANOV.**

**Navbatchi:**

**A.BAROTOV.**

**Sahifalovchi:**

**B.ABDULLAYEV.**



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



9 1 7 7 2 0 1 0 6 6 7 0 0 9  
Sotuvda narxi kelishilgan holda